# Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi
*(2021- yil yanvar-fevral)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1652,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (82,0 %) ni tashkil etdi.







***B**– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 4,5 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 1,5 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 22,9 % ga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining -40,6 % ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,6 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan I- II oylar, % da )*







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Shag‘al , ming t.** | 0,0 | 0,0 | 0,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1355,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,0 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 2,4 % ni (2020- yilning yanvar-fevral oylarida - 3,4 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 7,8 % (6,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 13,0 % (10,8 %) va quyi texnologiyalisi - 76,8 % (79,5 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 39,4 % (2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 20,1 % (2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,1 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,6 % (2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 67,6 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,9 % (2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 72,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,1 % (2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,6 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati**, *% da*

2021- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 10,4 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 3,0 % ga o‘sgan), 21,5 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (32,7 %) ishlab chiqarilib yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Paxta tolasi**




**Omuxta yem**






**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** ming tonna | 10,1 | 10,4 | 0,3 |
| **Aroq –** ming litr 100 % spirt | 83,3 | 0 | -83,3 |
| **Konyak spirti –** ming litr 100 % spirt | 0 | 0 | 0 |
| **Vino,** ming litr | 155,0 | 0 | -155,0 |
| **Un,** ming tonna | 16,2 | 21,5 | 5,3 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan),** ming tonna | 4,6 | 2,5 | -2,1 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 275,6 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (16,7 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,5 % ga oshganligi kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan I- II oylar, % da )*






## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** mln.kVt/s | 717,5 | 1113,2 | 395,7 |
| **Issiqlik energiyasi,** ming gkal | 22,6 | 16,4 | -6,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,9 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*( yil boshidan I- II oylar, % da )*

2020-yil *% da*




2021- yil *% da*




| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-fevral | 2021- yil yanvar-fevral | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** mlrd.so‘m | 6,7 | 11,8 | 5,1 |
| **Oqava suvlarni shlami,** mlrd.so‘m | 0,7 | 1,8 | 1,1 |
| **Shahar xo‘jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** mlrd. so‘m | 3,7 | 2,2 | -1,5 |
| **To‘qimachilik chiqindilari,** tonna | 0,0 | 0 | 0 |
| **Xavfsiz metall chiqindilari,** ming.t | 0,0 | 0 | 0 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 76,1 % ga, oqava suvlarni shlami 2,5 martaga ortganligi, hamda shahar xo‘jaligining qayta

ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 40,5 % ga pasayganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 839,1 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 115,0 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 50,8 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 38,9 % ni, shuningdek, Namangan tumani 12,3 % ni, Chust tumani 10,0 % ni, To‘raqo‘rg‘on tumani 9,3 % ni, Pop tumani 5,8 % ni hamda Uchqo‘rg‘on tumani 5,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (115,0 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Mingbuloq (3,1 marta), Chust (2,1 marta), To‘raqo‘rg‘on (160,0 %), Chortoq (122,3 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

**Namangan sh.**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 326,7 | 38,9 | 105,7 |

**To‘raqo‘rg‘on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 77,7 | 9,3 | 160,0 |

**Mingbuloq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 33,8 | 4,0 | 310,4 |

**Uychi**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 26,7 | 3,1 | 103,3 |

**Kosonsoy**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 37,9 | 4,5 | 110,4 |

**Uchqo‘rg‘on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 45,5 | 5,4 | 73,2 |

**Namangan**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 102,8 | 12,3 | 97,2 |

**Chortoq**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 22,4 | 2,7 | 122,3 |

**Norin**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 11,0 | 1,3 | 102,6 |

**Chust**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 83,9 | 10,0 | 212,5 |

**Pop**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 48,3 | 5,8 | 111,0 |

**Yangiqo‘rg‘on**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 22,4 | 2,7 | 107,8 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 35,7 % ni, shuningdek, Namangan tumani 13,9 % ni, Chust tumani 13,3 % ni hamda To‘raqo‘rg‘on tumani 12,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich Mingbuloq (4,0 marta), Chust (2,5 marta), To‘raqo‘rg‘on (171,5 %) hamda Yangiqo‘rg‘on (115,4 %) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 197,8 | 35,7 | 104,7 |
| To‘raqo‘rg‘on | 70,7 | 12,7 | 171,5 |
| Mingbuloq | 28,0 | 5,0 | 396,8 |
| Uychi | 17,7 | 3,2 | 85,8 |
| Kosonsoy | 29,7 | 5,3 | 110,0 |
| Uchqo‘rg‘on | 16,1 | 2,9 | 81,1 |
| Namangan | 77,2 | 13,9 | 103,1 |
| Chortoq | 8,8 | 1,6 | 103,0 |
| Norin | 5,5 | 1,0 | 101,3 |
| Chust | 74,2 | 13,3 | 250,5 |
| Pop | 18,3 | 3,3 | 109,6 |
| Yangiqo‘rg‘on | 11,9 | 2,1 | 115,4 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to‘g‘ri kelib, 45,6 % ni, shuningdek, Pop tumani 10,6 % ni, Uchqo‘rg‘on tumani esa 10,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Mingbuloq tumani (150,8 %), Chortoq tumani (138,9 %) hamda Pop tumanida (111,9 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2021- yilning yanvar-fevral oylarida)*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Namangan sh. | 62,2 | 44,6 | 99,2 |
| Mingbuloq | 2,9 | 2,1 | 142,4 |
| Kosonsoy | 4,1 | 2,9 | 105,5 |
| Namangan | 13,0 | 9,3 | 83,2 |
| Norin | 2,7 | 1,9 | 96,2 |
| Pop | 15,0 | 10,8 | 109,5 |
| To‘raqo‘rg‘on | 3,5 | 2,5 | 88,8 |
| Uychi | 4,5 | 3,2 | 86,9 |
| Uchqo‘rg‘on | 12,8 | 9,2 | 57,8 |
| Chortoq | 7,9 | 5,7 | 154,3 |
| Chust | 5,0 | 3,6 | 94,1 |
| Yangiqo‘rg‘on | 5,7 | 4,1 | 104,3 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 508,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 30,7 % ni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Viloyat | 1652,8 | 100,0 | 103,4 |
| Namangan sh | 573,2 | 34,7 | 101,3 |
| To‘raqo‘rg‘on | 312,2 | 18,9 | 125,8 |
| Mingbuloq (Млрд. сум / Ulushi % da / O‘sish sur’ati) | 33,9 | 2,0 | 28,0 |
| Uychi | 81,6 | 4,9 | 109,5 |
| Kosonsoy | 51,4 | 3,1 | 111,1 |
| Uchqo‘rg‘on | 111,5 | 6,7 | 87,6 |
| Namangan | 159,8 | 9,7 | 100,4 |
| Chortoq | 23,0 | 1,4 | 113,9 |
| Norin | 44,4 | 2,7 | 107,0 |
| Chust | 128,3 | 7,8 | 124,6 |
| Pop | 110,9 | 6,7 | 122,9 |
| Yangiqo‘rg‘on | 22,6 | 1,4 | 100,3 |

## Hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida To‘raqo‘rg‘on (2020-yil yanvar-fevral oylariga

nisbatan 125,8 %), Chust (124,6 %), Pop (122,9 %), Chortoq (113,9 %) hamda Uychi (109,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, *% da*** | **Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da**






## Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 34,7 % i) hamda To'raqo'rg'on (18,9 %), Namangan (9,7 %), Chust (7,8 %), va Pop (6,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Chortoq hamda Yangiqo‘rg‘on (1,4 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To‘raqo‘rg‘on tumani (1 371,1 ming so‘m), Namangan shahrida (905,4 ming so‘m), Namangan tumani (885,0 ming so‘m), Uchqo‘rg‘on (644,0 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (582,2 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Bu borada eng past ko‘rsatkich Yangiqo‘rg‘on (102,8 ming so‘m), Chortoq (114,9 ming so‘m), Kosonsoy (244,3 ming so‘m) va Mingbuloq (266,5 ming so‘m) tumanlarida ko‘rsatilmoqda.

# Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| Viloyat | 582,2 | 295,6 |
| Namangan sh | 905,4 | 516,2 |
| To‘raqo‘rg’on | 1 371,1 | 341,1 |
| Mingbuloq | 266,5 | 265,9 |
| Uychi | 380,6 | 124,4 |
| Kosonsoy | 244,3 | 179,8 |
| Uchqo’rg’on | 644,0 | 262,9 |
| Namangan | 885,0 | 569,4 |
| Chortoq | 114,9 | 111,6 |
| Norin | 269,4 | 66,9 |
| Chust | 480,4 | 314,2 |
| Pop | 502,2 | 218,9 |
| Yangiqo’rg’on | 102,8 | 101,9 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-fevral oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 640,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,8 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo`rg`on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (98,0 %) va Uychi (53,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (10,8 %), Uchqo‘rg‘on (13,4 %), Namangan (26,3 %) va Norin (26,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2021- yil 1- mart holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 6 833 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2 657 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,9 % i) Namangan shahriga, 526 tasi (7,7 %) Uychi tumaniga, 514 tasi (7,5 %) Chust tumaniga, 502 tasi (7,3 %) Kosonsoy tumaniga, 498 tasi (7,3 %) Namangan tumaniga, 460 tasi (6,7 %) To‘raqo‘rg‘on tumaniga to‘gri kelmoqda.

| Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, *birlikda* | Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, *birlikda* |
|---|---|




2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 342 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 88 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 25,7 %) Namangan shahrida, 43 tasi (12,6 %) Norin tumanida, 33 tasi (9,6 %) To‘raqo‘rg‘on tumanida, 32 tasi

(9,4 %) Kosonsoy tumanida, 32 tasi (9,4 %) Chust tumanida hamda 28 tasi (8,2 %) Chortoq tumanida tashkil etildi.



## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2021- yil 1- mart holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 657 ta), Uychi (526 ta), Chust (514 ta), Kosonsoy (502 ta), Namangan (498 ta), To`raqo`rg`on (460 ta) tumanlari qayd etildi.







2021-yilning 1-mart holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (184 ta), Pop (270 ta), Chortoq (289 ta), Uchqo‘rg‘on (290 ta), Yangiqo‘rg‘on (307 ta) hamda Norin (336 ta) tumanlari qayd etildi.

**Sanoat statistikasi bo‘limi**
*Tel.: (69) 227-84-80*